



TALABALARING AN'ANAVIY XONANDALIK MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ASOSIY IJROCHILIK KO'NIKMALARI.

Yulyaxshiyev Sherali Narzullayevich

Guliston davlat pedagogika instituti katta o 'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarning an'naviy xonandalik san'ati bo'yicha mahoratlarini shakllantirishga yo'naltirilgan muhim ijrochilik ko'nikmalarini yoritishga bag'ishlangan. An'naviy xonandalik san'ati milliy madaniy merosning ajralmas qismi bo'lib, talabalarda buni shakllantirish jarayoni ko'plab omillar bilan bog'liq. Maqolada ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish, musiqiy bilimlar va metodik ta'limning o'rni, ustoz-shogird an'anasining ahamiyati, milliy sozlar bilan ishlash ko'nikmalari, sahna madaniyati, musiqiy eshitish va xotirani rivojlantirish kabi asosiy jihatlar keng qamrab olingan.

Kalit so 'zlar: An'naviy xonandalik, Ijrochilik mahorati, iste'dod, ovoz imkoniyatlari, nafas olish texnikasi, maqomlar, ustoz-shogird an'ani, Shashmaqom, sahna madaniyati, milliy meros

An'naviy xonandalik san'ati o'ziga xos nozik ijro uslublari va musiqiy merosning ifodasidir. Ushbu san'at turini o'rganish jarayoni qobiliyat va qiziqish bilan bir qatorda aniq metodik yondashuvni talab qiladi. Quyida an'naviy xonandalik ko'nikmalarini tarbiyalash bo'yicha to'liq ma'lumot keltirilgan.. An'naviy xonandalik ko 'nikmalarini talabalarga singdirishda eng birinchi navbatda ovoz ustida ishlash ko'nikmasi birinchilardan sanalib ushbu jarayonda Ovoz xonandalikning asosiy asbobi bo'lib, uni rivojlantirish birinchi o'rinda turadi. Nafasni to'g'ri boshqarish orqali ovoz barqarorligini ta'minlash. Mashqlar: diafragma nafasini rivojlantirish uchun chuqur nafas olish va uni asta-sekin chiqarish mashqlarini bajarishdan iboratdir. Talaba o 'z ovozi ustida ishlashda ovozning ijro imkoniyati va diapazonni kengaytirishga ahamiyat qaratish va bu jarayonda turli balandlikdagi tovushlarni ijro etish qobiliyatini rivojlantirish, baland va past ovozlar o'rtasida silliq o'tishni o'rganish, vibratsiya va ovoz boyligini oshirish, vibratsiya va rezonansli ovozni hosil qilish uchun maxsus vokal mashqlar. Olib borish va albatta vozning ifodaviyigini oshirish uchun hissiyotga asoslangan mashqlarni qo'llash. Kabi amaliyotlardan o 'tishi lozim

Musiqiy eshitish va xotira kabi ko 'nikmalar bosqichma bosqich o 'tilishi lozim bo 'lgan jarayonlardan sanalib, musiqiy asarlarni to'g'ri ijro etish uchun yaxshi eshitish va xotira muhimdir. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun, ohang va ritmlarni ajrata olishni mashq qilish., o'zbek xalq kuylarini eshitib, ularni takrorlash.maqsadga muvofiq sanaladi.

Xar qanday ijrochilik ko 'nikmalarini o 'rganish jarayonlarida musiqiy xotirani rivojlantirish eng muhimlaridan sanaladi. Talaba eshitgan kuy va maqomlarni eslab qolish va ularni ijro eta olishga yordam beradi va mantiqiy ketma-ketlikda ohanglarni qayta tiklash mashqlarini bajarish.

Mavzu nomidan kelib chiqqan holatda an'naviy xonandalik ko 'nikmalini shakllantirish uchun milliy musiqa merosimizning tarixi, shakllanishi va rivojlanish



jarayonlarini amaliy va nazariy bilimlarga tayanib olib borish lozim. Hususan maqom va usullarni o'rganish

O'zbek an'anaviy musiqa tizimida maqom va usullarni o'rganish alohida ahamiyatga ega. Milliy maqomlarimizni o'rghanish va asarlarni ijro etishda eng kata dasturul amal bu albatta "Shashmaqom" hisoblanadi. Shashmaqomning tuzilmasi va uning qismlarini (Buzruk, Rost, Dugoh, Segoh, Iroq va Hijoz) chuqur o'rganish, har bir maqomning o'ziga xos ritm va ohangini tahlil qilish va undan tashqari Farg'ona-Toshkent, Buxoro va Xorazm xonandalik uslublarini o'zlashtirish va albatta har bir uslubning ijro an'analariga mos ravishda ifodaviylikni rivojlantirish amaliy mashg'ulotlarning negizini tashkil etadi. An'anaviy honandalik ko'nikmalarini talabalarda shakllantirish jarayonlarida yana kata e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ko'nikma bu albatta ijro madaniyati hisoblanadi.

Xonandalik faqat texnik ijro bilan cheklanmaydi, balki uni to'g'ri ifoda eta olish va ijro jarayonida ijro madaniyati qoidalariga rioya etishi ham muhimdir. Xonanada ijro madaniyatini shakllantirish uchun albatta u sahnada o'zini o'zi tutishni, harakatlarini boshqarib nazorat qila olishi kerak. Sahnada o'zini tutishda xonanda o'z harakatlari, holati va ovoz ohanglari orqali tinglovchilarini o'ziga jalg qilishi kerak. Sahnada erkin va tabiiy harakat qilishga o'rgatish shart. Sahnaviy madaniyat ham xonandaning eng muhim jihatlarini o'z ichiga oladi masalan: har bir ijro an'anaviy milliy kiyimlar bilan uyg'unlashishi va kiyim-kechak orqali ijro mazmunini to'ldirish qobiliyatini shakllantirish.

An'anaviy xonanda ijrosi odatda milliy sozlar bilan birga olib boriladi. Shuning uchun musiqiy hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Musiqiy asboblarni tushunishi hususan, dutor, rubob, tanbur kabi milliy sozlarning ohang va imkoniyatlarini bilish, sozanda bilan hamkorlik qilishda bir-birini tushunish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Ansamblda kuylash va sozandalar bilan uyg'un ishslash mashqlarini bajarishda faol bo'lib ritm va ohang birligini ta'minlash.

An'anaviy xonandalik o'zlashtirishda ustozning roli beqiyosdir va shu vajdan ham har bir saboq ustoz - shogird an'anasini bo'yicha olib boriladi. Ustoz tajribali xonandalarning ijro uslublarini kuzatish va ularni takrorlashga yordam beradi. Ustozdan o'rganilgan texnikalarni o'z ijrosida qo'llash esa shogirdning ustoz an'analarini davom ettirishga undaydi.

Shogirdlik mashg'ulotlarini muntazam ravishda ustoz bilan ishslash orqali ko'nikmalarni rivojlantirish, individual ijodiyligini qo'llab-quvvatlash xonandalikni puxta o'rganish uchun doimiy mashq talab etiladi. Har kuni ovoz, nafas va maqom mashqlarini bajarish va angi kuylarni o'rganish va ijroda takomillashtirish. Yakka, xor yoki ansamblda qatnashish orqali birgalikda ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Xonandalik ko'nikmalaridan yana bir muhim amaliyot bu o'z tinglovchilariga hissiyot va xabar yetkazishi, ijro davomida tinglovchilarining kayfiyatini sezishi va unga moslashishi kerak. Ijroda ifodalilagini oshirish uchun ijrochi avvalambor so'z va ohang orqali hissiyotlarni yetkaza olishi va ar bir kuy orqali aniq xabar va hissiyotni uzatishi maqsadga muvofiqdir. An'anaviy xonandalik ko'nikmalarini tarbiyalash murakkab, ammo boy ijodiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayon texnik mahoratni rivojlantirish, milliy musiqiy merosni anglash va tinglovchilar bilan o'zaro aloqani shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Muntazam mashg'ulotlar, ustoz-shogird an'anasi va ijodiy izlanishlar orqali mukammallikka erishish mumkin.

An'anaviy xonandalik san'ati xalqning musiqiy va madaniy merosini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu san'at turini shakllantiruvchi omillar qatoriga tabiiy iste'dod, metodik ta'lim, ijro an'analari va individual mehnat kiradi. Quyida an'anaviy xonandalik ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy omillar bayon etilgan. Xonanda bo'lism uchun tabiiy ovoz imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy xonandalik ko'nikmalarini shakllantirish tabiiy iste'dod, puxta ta'lim, ustoz-shogird an'anasi va ijodiy mehnatni talab qiladi. Bu jarayon orqali xonanda milliy musiqiy merosni saqlash va rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadi. Muntazam mashg'ulotlar va ijodiy izlanishlar bilan mukammallikka erishish mumkin. An'anaviy xonandalik san'ati xalqning musiqiy va madaniy merosini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu san'at turini talabalar orasida rivojlantirish va ularni ijrochilik mahoratlari bilan boyitish jarayoni ko'plab omillarga asoslanadi.

Quyida talabalarning an'anaviy xonandalik mahoratlarini shakllantirishda muhim ijrochilik ko'nikmalari bayon etilgan.

Talabalarning an'anaviy xonandalik mahoratini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, tabiiy iste'dod, puxta ta'lim, ustoz-shogird an'anasi va ijodiy mehnatni talab qiladi. Bu jarayon orqali talabalar nafaqat milliy musiqiy merosni o'rganadilar, balki uning boyligini tinglovchilarga etkazish orqali saqlash va rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shadilar. Shuningdek, individual va jamoaviy mashg'ulotlarning ahamiyati, tinglovchi bilan hissiy uyg'unlikni ta'minlash usullari muhokama qilinadi.

Talabalar ushbu jarayon orqali nafaqat milliy musiqiy merosni chuqur o'zlashtirishga, balki uni saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shadilar. Ushbu maqola xonandalik san'atiga qiziquvchi talabalarga hamda pedagoglarga qo'llanma sifatida foydalidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'lchiyeva M. An'anaviy yakka xonandalik Toshkent 2017 yil
2. Rajabov I. Maqomlar. Toshkent. 2006 yil.
3. Yulyahshiyev Sherali Narzullayevich. (2024). O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQA AN'ANALARINI TALABALARGA ORGATISHNING ASL MOHIYATI . TADQIQOTLAR.UZ, 39(4), 143–147
4. A LOOK AT THE HISTORY OF UZBEK NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS. RECOMMENDATIONS FROM TEACHERS TO STUDENTS OF INSTRUMENT ... ZD Khomidov, SN Yulyaxshiyev - Oriental Art and Culture, 2022
5. SH. N. Yulyahshiyev "O'zbek xalq musiqa ijodiyoti" o'quv qo'llanma . 2024 yil
6. Yulyahshiyev Sherli Narzullayevich (2024). MILLIY MUSIQA MEROSIMIZNI YOSH AVLODGA O 'RGATISH JARAYONLARIDA, PEDAGOGDA "USTOZLIK" MAQOMINING SHAKLLANISHI JARAYONLARI, YUTUQ HAMDA KAMCHILKLAR. <https://doi.org/10.5281/ZENODO.11465859>



7. Akbarova , M. (2022). VOKAL SAN'ATI. AN'ANAVIY HONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING UMUMMILLIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNALOGIYALARI. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 122–126.
8. AN'ANAVIY XONANDALIK YO 'NALISHI BO 'LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR MG Akbarova Oriental Art and Culture, 2023